

O'ZBEKISTONDA BOZOR MUNOSABATLARINING SHAKLLANISHI VA IQTISODIY ISLOHOTLARNING JADALLASHUVI

Komilova Mohinur

Andijon Davlat Universiteti 3-bosqich talabasi

***Annotasiya:** Ushbu ishda O'zbekistonning bozor munosabatlariga bosqichma bosqich o'tishi va iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi yoritiladi. O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishining sabablari keltiriladi. Mustaqillik yillarida iqtisodiy islohotlarning qanday amalga oshirilganligi va uning natijasi keltiriladi.*

***Kalit so'zi:** O'zbek modeli, bozor munosabatlari, dehqon xo'jaliklari, agrar sektor, tadbirkorlik,*

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko'pchilik mamlakatlari uchun xos bo'lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o'ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Xususan, O'zbekiston ham mustaqilligining ilk yillaridanoq bozor iqtisodiyotiga o'tishni o'z oldidagi muhim vazifalardan biri deb hisobladi. Bunda O'zbekiston o'zining o'ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiiy xususiyatlarini hamda bu yo'ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to'ntarishlarsiz, ijtimoiy to'qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat'iyatlilik bilan bosqichma -bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tishdan iborat yo'lni tanladi. Bu yo'ldagi ishlarni amalga oshirish uchun o'z iqtisodiy, siyosiy, madaniy ahvolimizni inobatga olgan holda tuzilgan modelimiz bo'lishi lozim edi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida yurtimiz iqtisodiy ahvolini hisobga olgan holda, jahon standartlariga to'liq javob beradigan «o'zbek modeli» yaratildi.

Bu yo'l haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov o'zining «Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir» nomli

kitobida shunday fikr bildirgan: «O'zbekistonda qabul qilingan, «o'zbek modeli» ijtimoiy yo'naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiyotni mafkuradan xoli etish, uning siyosatdan ustunligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi, qonun ustivorligiga erishish, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, islohotlarni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish kabi mashhur besh tamoyilga asoslangan o'ziga xos yo'li»

¹²Bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat qurishning asosiy tamoyillari yurtboshimiz I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilib, bu tamoyillar mazmuni quyidagicha:

-iqtisod siyosatdan ustun turib mafkuraviy tayziqlarsiz, o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanmog'i kerak;

-davlat bosh islohotchi o'rnida bo'lib, uning yo'nalishlarini belgilab beradi va amalga oshiradi;

-bozor munosabatlariga o'tish qonun ustivorligini talab qiladi. Butun xalq tomonidan qabul qilingan Konstitutsiya va qonunlarga amal qilinishi shart:

-bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini kuchli himoya qilishning kuchli ijtimoiy siyosatini o'tkazish;

-bozor iqtisodiyotiga o'tish evolyusion yo'l bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilmog'i zarur.

Bozor munosabatlariga o'tishda iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqilib, uning tub maqsadi-markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir. Yangi iqtisodiy munosabatlarga o'tish tamoyillari asosida g'oyat ma'suliyatli va murakkab vazifa-iqtisodiy islohotlar strategiyasi ishlab chiqildi. Iqtisodiy strategiyaning boshlang'ich nuqtasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olishdan iboratdir. Bu vazifa markazlashtirilgan, ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor

¹ Islom Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yolida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" Toshkent "O'zbekiston" 2015. 126-bet.

²

munosabatlariga, bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tishdan iboratdir.

Bozor islohotlarini amalga oshirish dasturiga ko'ra ustuvor vazifalar bosqichma bosqich hal qilinadi. Birinchi bosqichda totalitar tizimdan hozirgi zamon bozor munosabatlariga o'tish davridagi bir-biriga bog'liq, ikki vazifani bir vaqtda hal qilishga to'g'ri keldi: ma'muriy buyruqbozlik tizimining og'ir oqibatlarini tugatib, iqtisodni barqarorlashtirish va bozor munosabatlarining negizini shakllantirish. Bu bosqich jarayonida iqtisodiy islohotning g'oyat muhim yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berildi:

-o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniyhuquqiy bazasini mustahkamlash va rivojlantirish;

- qishloq xo'jaligida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish;

-ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish. Iqtisodiy islohotlarni huquqiy asoslovchi qonun-qoidalar yuridik tashkilotlar va yetuk olimlar tomonidan tayyorlandi va jahonning yirik mutaxassislari tomonidan quvvatlanib tan olindi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:mulkiy munosabatlarni isloh qilish, agrar islohotlar, moliya-kredit va narx-navo islohoti, boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish, tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti, ijtimoiy islohotlar. Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shuorqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli Respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat. 1991-1996-yillar mobaynida iqtisodiy islohotlarning barcha yo'nalishlarida salmoqli institutsional o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xususan turarjoylar, savdo, xizmat ko'rsatish sohasi, matlubot jamiyati obyektlari va turli tarmoqlarning mayda korxonalarini xususiylashtirish amalda tugallandi. O'rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayoni faol boshlab yuborildi. 1996-yil 12-martda tadbirkorlikni rivojlantirish, qo'llab-quvvatlash maqsadida, shu

jumladan, individual mehnat faoliyati bilan band bo'lgan jismoniy shaxslarni ham hisobga olib borish, ularning manfaatlarini himoya qilish, ishlarini tashkil etishda yordam ko'rsatish vazifasini o'z zimmasiga olgan tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlarning Respublika Palatasi tashkil qilindi. Hozirda joylarda uning hududiy bo'limlari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi bo'g'ini sifatida qishloq xo'jaligida islohat o'tkazish, uni jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. Bunga sabab O'zbekiston aholisining 64 foizdan ko'prog'i qishloqda yashashi, ya'ni ichki mahsulotning 24 foizdan ko'prog'i agrar sektorga to'g'ri kelishi va qishloqda istiqomat qilganlarning 37 foizga yaqini qishloq xo'jaligi bilan bandligida edi. Qishloq xo'jaligida islohatlarni amalga oshirishda eng ustuvor masala sifatida yerga mulkchilik masalasi hal qilindi. O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning kamligini hisobga olib, yer xususiy mulk qilib sotilishi mumkin emasligi, balki uni uzoq muddatli ijara shartlari bilan topshirish mumkinligini huquqiy hujjatlarda qayd etildi. Mustaqillikning dastlabki qadamlaridan boshlab qabul qilingan meyoriy hujjatlarda, xususan, "Yer to'g'risida"gi (20 iyun 1990 yil) va boshqa qonunlarda va Prezident farmonlarida qishloq xo'jaligidagi tub islohatlarni huquqiy va nazariy asoslari yaratildi. Qishloqda bozor munosabatlarini rivojlantirish, dehqonning yerga egalik hissini qayta tiklash, yerni sotish-olishga yo'll qo'ymasdan, balki uni uzoq muddatlarga (50 yilgacha) meros qilish huquqi bilan vaqtincha yoki umrbod foydalanishga berish masalalari hal qilindi. ³1992-yildan boshlab atigi uch yil ichida mavjud 1137 davlat xo'jaligidan 1066 mulkchilikning aksiyadorlik, jamoa yoki ijaradagi xo'jalikka aylantirildi. 1516 qoramolchilik fermasi mehnat jamoalarining mulki qilib berildi. Qishloq xo'jaligida ko'p ukladli iqtisod vujudga keldi. 1997-yili shaxsiy tomorqa xo'jaligi 3 mln. gektarni tashkil qildi. Tomorqa xo'jaliging ekin maydoni 1989 yili 257 ming gektar bo'lsa, 1997-yil 599,7 ming gektarga ko'paydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining X sessiyasi (dekabr, 1997 yil) agrar va iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish yuzasidan qator qonunlar qabul qildi. "Yer

³ Murtazayeva. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2005
www.pedagoglar.org

kodeksi”, “Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida”, “Dehqon xo'jaligi to'g'risida”, “Yer kadastrini to'g'risida”gi qonunlar qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning huquqiy asoslarini mustahkamladi. 2000-yilga kelib respublikada davlatga qarashli bo'lmagan sektor mustahkamlandi ya yetakchi o'rinni egallab, 1991-yilgi 63 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1999 yil sentyabriga kelib qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish hajmining 98,4 foizini egalladi. Barcha islohotlarning tub maqsadi insonning ijtimoiy turmushini yaxshilashga qaratilgandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Murtazayeva. O'zbekiston tarixi. Toshkent-2005.
2. Islom Karimov "Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yolida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" Toshkent "Ozbekiston" 2015. 126-bet.
3. Xodiyev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. va boshqalar O'zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarida. T.: TDIU, 2007.